

## MILLIY CHOLG'ULARIDA NOLA VA QOCHIRIMLARDAN FOYDALANISH

Alimova Diyora

Andijon davlat pedagogika instituti musiqiy ta'lif yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

[dalimova708@gmail.com](mailto:dalimova708@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13921239>

*Annotatsiya. O'zbek mumtoz musiqa ijrochiligi musiqiy asarni o'z marosimaga yetkazib ijro etishda o'ziga xos musiqiy bezaklar mavjud. Ushbu maqolada musiqa madaniyati va milliy cholg'u ijrochiligida ijro uslublari, musiqiy asar mazmuni hamda yo'nalishiga mos musiqiy bezaklar, qochirimlar, ulardan foydalanish yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan.*

*Kalit so'zlar: Qochirim, nota, maqom, cholg'u, rez, milliy yo'nalish, forshlag, grift.*

### THE USE OF NOLA AND KOCHIRIM IN NATIONAL INSTRUMENTS

*Abstract. Uzbek classical music performers have their own musical decorations when performing a musical piece for their ceremony. Three articles provide information on music culture and performance styles of national musical instruments, the content of a musical piece, and musical decorations, rhymes, and then download methods.*

*Key words:* Kochirim, note, status, musical instrument, rez, national direction, forshlag, grift.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НОЛЫ И КОЧИРИМА В НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТАХ.

**Аннотация.** Узбекские исполнители классической музыки имеют свои музыкальные оформления при исполнении музыкального произведения на церемонии. В данной статье представлены сведения о музыкальной культуре и стилях исполнения национальных музыкальных инструментов, содержании музыкального произведения, музыкальных орнаментах, струнах и способах их использования.

**Ключевые слова:** Kochirim, nota, status, instrument, rez, national direction, forshlag, афера.

Mustaqilligimizning 31 yilli davri mobaynida mamlakatimizda ko'p sohalar qatori musiqa san'atida ham e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar so'ngi olti yillikda ham davom etib kelmoqda. Buning samarasi o'laroq, musiqa san'atini keng ko'lamda rivojlantirish zarur shart-sharoitlar yaratildi. Yosh avlodga milliy va jahon musiqalari asosida ta'lif-tarbiyab berish yo'lida muhum ishlar amalga oshirildi. Xususan, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyev tomonidan “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora tadbirlar to‘g’risida”gi qarori imzolandi.<sup>1</sup>

O‘zbek xalqining beba boyligi hisoblanmish milliy musiqiy cholg’ularimiz o‘zining betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o‘rin tutgan.

Musiqa madaniyati inson ma’naviyati, tafakkuri va ruhiyatiga katta tasir ko‘rsatib, uning ichki kechinmalarini, ruhiy kayfiyatini o‘zgartira olish xususiyatiga ega. Musiqa inson madaniyatida va ijtimoiy hayotda o‘ziga xos o’ringa ega bo’lib, u dam olish va ko‘ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, mehnat jarayonlarida muayyan vazifani bajaradi. Musiqa asarlari o‘z mazmuniga muvofiq holda bir necha uslub, tur va janr guruhlariga ajratiladi. Musiqa asarlari xalq tomonidan asrlar davomida shakillanib, sayqallanib keladi. Musiqa cholg’ular azal-azaldan o‘zbek xalqimizning ma’naviy hayotida muhum ahamiyat kasb etib, kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog’lanib ketgan. Ular hozirgi kunda ham kishilar dunyoqarashining shakillanishida o‘ziga xos hususiyatlari ega.

Ayniqsa, cholg’u ijrochiligi san’ati ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakillanib, nafaqat musiqa ilmida, balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg’otib kelmoqda. Uning barcha o‘ziga hos hususiyatlari va qirralarini o’rganish esa cholg’u ijrochiligi amaliyotini boyitishga yordam beradi.

Musiqa cholg’ularida ma’lum bir kuyni ijro etish ijrochida, avvalo, istedod qiziqish bo‘lishini talab qiladi. Musiqiy cholg’u asboblarida ijro etish ko‘nikma va malakalari aslida birdaniga shakillanmaydi, aksincha ushbu me’zonlarni mohirona egallash uchun ko‘p yillik tinimsiz izlanishlar, ustoz cholg’uchilar ijro usullarini ko‘p eshitish, o‘zining ijrochilik qobiliyatini, iste’dodini oshirish har bir vaqtan unumli foydalanish va ijrochilik mahoratini rivojlantirish orqali erishiladi<sup>2</sup>

Cholg’ular musiqasi hamda ijrochiligi azal-azaldan bir birini to‘ldirib, rivojlanishga va takomillashishiga zamin yaralib kelgan. Ijrochilik me’zoning rivoji cholg’ular ko‘lами kengaytirish, imkoniyatlarini oshirish uchun hizmat qilgan. O‘zbek an’anaviy cholg’ularining tarixiy shakillanishi ham bir qator xalq milliy an’analari negizida qaror topgan. Kasbiy musiqanining ijodiyoti va rivoji aynan cholg’ular bilan chambarchas bog’liqligini qayd etib o’tish lozimdir.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora tadbirlari to ‘g’risidagi PQ-112 sonli qarori

<sup>2</sup> A.Yuldashev, V.Boboyev. Cholg’uchi-sozanda talabalarni o‘zbek xalq kuylari va bastakor-kompozitorlar ijodidan namunalari ijro qilishda ijodiy yondashuvchanlikni o’rganish Mart 2022 yil

Mumtoz ijodiyot cholg'ularining mukammallik hususiyatlarini namoyish etibgina qolmay, ularning rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Shu bois, cholg'ular va cholg'u musiqasi an'analari o'zining shakillanish davri, ya'ni qadim zamonlardan xalq musiqa madaniyatining asosiy omillaridan biri sifatida muhum ahamiyat kasb etib kelgan. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilikning madaniyatning o'sishi, jahon kalssik bastakorlari asarlarining o'zlashtirilishi, O'zbekiston bastakorlarining xalq cholg'ulari uchun maxsus asarlar yaratishdagi faol ijodiy faoliyati o'zbek xalq cholg'ularidajrochilik san'atini yanada yuksalishi uchun muhim zamin bo'ldi. Shu bilan birga yuqori malakali pedagogik va ijrochi kadrlarni puhta va mukammal qilib tayyorlash masalasini ham kun tartibiga qo 'ydi.<sup>3</sup>

O'zbek xalq kuylari, bastakorlar asarlari va kompozitorlarning milliy ruhda yozilgan asarları talqinida notamatnida nola, qochirim singari bezaklar ham ishlatiladi. Musiqiy bezaklari - o'zbek ananaviy musiqa ijrochiligida ohang ifodaviyligini boyitish maqsadida keng qo'llaniladigon vositalar hisoblanadi. O'rta asr Sharq musiqasiga oid risolalarda musiqiy bezaklarga oid ma'lumotlar berilgan. Mahmud ash-Sheroziy o'zining "Durratut toj" qomusiy asarining musiqa ilmiga bag'ishlangan "Dar ilmi musiqiy" qismida tovushlarning paydo bo'lishi, milliy sozlarda ijro etish uslublari borasida fikr yuritish, sozandalar kunlari bezaklar bilan boyitishi lozimligini ta'kidlab o'tgan. Har bir musiqa asari, bиринчи navbatda kishiga ruhiy yengillik bahsh etib vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, kishining tashqi dunyoga ijobiy estetik munosabatda bo'lishini shakillantiradi, uchinchi tomondan esa tarbiyaviy tasir vazifasini ham bajaradi. Musiqa asarlarining kishi ruhiyatiga tasiri haqidagi fikrlarni qadim asrlarda yashab o'tgan olimning asarlarida ham uchratishimiz mumkun. Masalan, Aharqning buyuk mutaffakirlari o'zlarining musiqaga doir risolalarida musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri, turli his tuyg'ular uyg'ota olish hususiyatlarini batafsil tahlil qilishib, jumladan, maqom va ularning sho'balari kishiga shijoat va jasorat bag'ishlaydi deb uqtirib olishgan. Navo yoki Ushoq jozibador va ohangdor maqom yo'llari deb hisoblansa, Rost yoki Iroq nozik va yoqimli maqom yo'llari bo'lib, kishiga huzur hushchaqchaq kayfiyat bag'ishlaydi. Buzruk yoki Segoh va ularning sho'balari ulug'vorlik, g'amxo'rlik, quvonch va qayg'u kayfiyatini qo'zg'aydi.

"Dilxiroj" cholg'u kuyini tinglaganda kishida ko'tarinki holat vujudga kelsa, "Cho'li iroq" kuyida ruhan mozidan sado eshitilgandek bo'ladi. Kishining tashqi dunyoga estetik munosabatini shakillantirishdagi mumtoz musiqaning vazifikasi insonning tasirchanlik kayfiyati bilan bevosita bog'liqdir. Xalq yoki bastakor tomonidan yaratilgan har bir musiqa asari o'z oldiga u yoki bu darajadagi vazifani qo'yadi. Mumtoz musiqa ham o'z mayqeい, mohiyati, mazmuni, vazifikasi va

<sup>3</sup> A.Odilov "O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi" Toshkent 1995 yil 52-bet

ijrochilik hususiyatlari jihatidan ikki yirik guruhga ovoz va so‘z bilan bog’liq bo‘lgan aytim yo’llari va cholg’u orqali ifoda etiluvchi cholg’u yo‘llariga bo‘linadi. Ya’ni (Aytim yo’llari, cholg’u yo‘llari) ga bo‘linadi.

Musiqiy bezaklar har xil melizm va qochishmalardan iborat bo‘ladi. “Melizmlar”, “trel”, “forshlag”, “gruppetto”, deb nomlanadi va deyarli barcha xalqlar kuy va qo‘shiqlarda hamda kompozitorlar ijodida juda keng qo‘llaniladi. Shashmaqom asarlari va mumtoz o‘zbek kuylarida uchraydigon bezaklar melizmlar deb atalishi bilan birga “qochirim”, “nola” deb yuritiladi.<sup>4</sup>

Har bir xalq musiqasidagi melizmlar o‘ziga xos ko‘rinishlarga egaligi bilan ahamiyatlidir.

Ulardan torli (tanbur, dutor, g’ijjak,sato) va puflama (nay, sunray, qo‘shnay) musiqa cholg’ulari ijrochilida keng qo‘llaniladi.

**Melizm** (yunoncha melisma-qo‘sinq, kuy) ornamentika, musiqa bezaklari-vokal va cholg’u musiqada muayyan shaklga ega( mas, trell, forshlag, grift, kashish va boshqalar) yoki erkin tarzda ijro etiladigon (passaj, fioritura, qochirim, pola, mo‘lish) barcha ohang bezaklari, kuyning asosiy pog’onalarini o‘zgartiradigon qo‘s Shimcha tovushlar. Milliy kuy ohangdorligini, tasirchangligini oshiruvchi, ko’proq lirik mazmunini boyituvchi vositalar sifatida san’atiga keng joriy etilmoqda. Milliy xalq musiqa ijodiyoti va ijrochiligi, xususan, badiiy xalq san’ati, bastakorlik xamda kompozitorlik ijodiyotida uzoq, o’tmishtdan davom etib kelayotgan an’analarning mahsulidir.

Musiqa janrlar ichida eng murakkabi, ammo inson qalbiga yetib bora oladigoni sozanda tomonidan mohirlik bilan cholg’u sozida ijro etiladigoni kuy hisoblanadi. Sozanda ijro etayotgan har bir kuy –ohang o‘zining ma’lum bir mazmun mohiyatiga ega bo‘lib, u tinglovchiga tovush orqali ta’sir etadi va badiiy obraz yaratadi. Kuyning yana bir o‘ziga hos hususiyati shundaki so‘z beoqibat qolganda kuy yordamida ko‘ngilni eng hilvatli joylarini ham zabit etish imkoniyatiga egadir. Kuy-ohang qo‘shiqlar ijrosi yoqimli bo‘lishi yoki biror musiqiy obrazni yanada boyitib tinglovchilarga eshitirish uchun musiqada dinamik belgilari qo‘llaniladi.

Qochirimda bitta nota o‘rniga yonma-yon turgan notalardan foydalangan holda ijroni boyitsa, nolada esa nota matnidagi notani ijro etish davrida undan sirqalib pastroqqa yoki yuqoriroqqa siljish harakati yuz beradi. Ayrim asarlarda milliy nota, qochirimlarni turli qo‘s Shimcha belgilari bilan ifodalash amaliyoti ham uchraydi. Nota matnini milliy qochirimlar bilan boyitilayotgan asar ruhini, mazmuniga mos nola qochirimlar ishlatalishi kerak. Bunday milliy bezaklarni o‘zlashtirishda talabalarning milliy kuylarni ko‘p eshitishi hamda o’qituvchining o‘z

<sup>4</sup> V.Boboev “maxsus cholg’u” Qo‘qon 2020 27-bet

ushbu bezaklarni chalib ko‘rsatib berishi yordam beradi. Bu esa talabadan tinmay muntazam ravishda mehnat qilish va o‘z ustida ishlashni talab qiladi.

**Qochirim-** ijroda bir qator texnikaviy bezaklar bilan ifodalanib forshlag, mordent, trel kabi sayqallar namunasida xarakterlanadi. Odatta bu bezaklar oddiy va murakkab turlarga bo’linadi.

**Forshlag-**(oldindan urish) asosiy tovushni oldindan yarim yoki bir ton oralig’idagi tovush yordamida engil urib chalish.

**Kashish**-yarim ton oralig’idagi yuqorida pastga va pastdan yuqoriga qarab chap qo‘l barmoqlarining sirg’alish natijasida amalga oshiriladigon bezak. Musiqa san’ati ijrochiligida mavjud bo‘lgan glissando uslubining o‘ziga xos ko‘rinishidir.

Kashish amaliy-musiqiy amaliyotda o’tgan asrimizning 50-yillarida mohir sozandalar tomonidan “tortish” amali deb ham yuritilgan. G’ijjak ijrochiligida kashish amaliy kuyning rivoji zaminiga asoslangan. Ovoz hajmini quyidagicha tasavvur qilish mumkun va kashish uslubida ijro etiladigon bezak nota ustiga yoziladi. Bezaklarning yozilishi va ijro etilishi quyidagicha:

- yarim ton oralig’ida bajariladi,
- bir ton oralig’idagi kashish,
- pastki tondan yuqoriga kashish.

**Nola**-yarim ton doirasigacha bo‘lgan ohangdosh tebranuvchi tovush. Musiqa ijrochiligida keng qo‘llaniladigan vibrato kabi g’ijjak sozida pardani barmoq bosib muloyim va tez qimirlatish yo’li bilan amalga oshiriladigan usul. Nota yozuvida oddiygina shakilda ifoda etiladi.

**Rez** esa g’ijjakda kamonning eng uchki qismida o’ng qo‘lni tez va ravon harakati orqali amalga oshiriladi. Asosan bunday ijro usulini sozanda o‘z tartibiga ko‘ra, kuyning, turli qismlarida ishlatish mumkun, ba’zi hollarda esa kuyning dinamik, ya’ni eng yuqori nuqtalarida qo‘llaniladi.

**Yakka zarb**- tovush chiqarish vositasining eng oddiy usuli bo‘lib, har ikki qo‘lning oddiy harakati bilan bajariladi. Yakka zarb chang ijrochiligining asosiy mohiyatini xarakterlovchi usuldir. Ijroda kuyning harakatini ifodalashda tovush kuchi, xarakter va harakati muhim omildir.

Shuning uchun yakka zarbni ma’noli ifodasiga erishishda cholg’u torlariga cho’pning to‘g’ri aniq va ongli tarzda urulishi muhum ahamiyat kasb etadi.

**Qo’sh zarb**- changda cho’p bilan har ikki qo‘lning bir vaqtdagi harakati asosida bir notani chalish natijasida eerishiladigan zarb. Chang ijrochiligi amaliyotida qo’sh zarb asosiy ikki ko‘rinishda talqin etiladi.

Birinchi qism: ikki cho‘p bilan bir paytda urib chalish,

Ikkinci qism: har xil balandlikdagi ikki tovush simlarini bir paytda urib chalish oktava, kvinta, kvarta deyiladi. Amaliyotda ko‘proq oktava oralig’idagi qo’sh zarb ishlatiladi.

**Qo'shimcha bezaklar-** g'ijjak ijrochiligidagi va zamonaviy jarayonda to'lqinlashtirish, kashish va nola kabi bezaklarning birlashgan holatlarida bir qator o'ziga xos bezaklar qo'llash cholg'u ijrochiligidagi ko'p uchraydi. O'ziga xos kichik turkumiy bu zamonaviy bezaklarga har bir ijrochi ijodiy yondashsa, mukammal ijrochilik mahoratiga erishadi.

Bu musiqa bezaklari uzun yoki qisqa, asosiy yoki yordamchi tovushlar yordamida ijro etiladi. Ular notaning ust yoki quyi qismlariga yoziladi va o'qilishi orqali kuy ijro etiladi.

Musiqiylar asosan sozandaga musiqa tovushlarini o'z o'rniда to'g'ri qo'llashi va notalarini tog'ri anglab yetishi uchun muhum ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytish mumkunki, yoshlarni musiqa ijrochiligi san'ati bo'yicha tarbiyalashda musiqanining ahamiyati kattadir. Bunda yoshlar o'zbek xalq cholg'ularining turlari, tarixi, yasalishi, cholg'ularning tuzilishi, qismlari, sozlanishi, diapazoni, o'ng va chap qo'l harakati uyg'unligi, ijro holati va qoidalari ijrochilik uslublari, shtrixlar turini o'zlashtirish, ablikatura, pozitsiya, cholg'u ijrochilar faoliyati, partitura bo'yicha cholg'ular joylashuvi va cholg'ularni saqlashni o'zlashtiradi. Har bir sozanda yoshlar xalq cholg'ularining rang-barangligi his qilishda dastlabki ijro malakalari, zarblari, temp, o'lchov, ritm, dinamika, ijro mahoratini oshirish uchun gamma, etyudlar, hamda kichik kuylar ijrosini egallashlari orqali o'z bilim va ko'nikmalarini hosil qiladilar. Bu esa o'zbek xalq kuy qo'shiqlari va jahon klassik asarlari me'roslarini yaxshi anglashimizga yordam beradi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirdari to 'g'risidagi PQ-112 sonli qarori
2. Yuldashev, V.Boboyev. Cholg'uchi-sozanda talabalarni o'zbek xalq kuylari va bastakor-kompozitorlar ijodidan namunalar ijro qilishda ijodiy yondashuvchanlikni o'rganish Mart 2022 yil
3. A.Odilov "O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi" Toshkent 1995 yil 52-bet
4. Boboev "maxsus cholg'u" Qo'qon 2020 27-bet
5. **Djalilova, D. O. (2023). CHOLG'U ANSAMBLI VA MUSIQIY ASAR USTIDA ISHLASH. SCHOLAR, 1(28), 277–287. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10026753>**
6. Jabborov.S.Begmatov.M.Azamova " O'zbek musiqa tarixi" Toshkent 2008 35-bet